

Raqamli texnologiyalar vazirligining
2025-yil 20-oktabrdagi 33/21-q/q-son,
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining
2025-yil 20-oktabrdagi 51-q/q-son,
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2025-yil 20-oktabrdagi 56-q/q-son
qo'shma qaroriga
1-ILOVA

**“Bir million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasi doirasida tanlovlarni
tashkil etish va o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi
NIZOM**

1-bob. Umumiy qoidalar

1. “Bir million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasi (*keyingi o‘rinlarda – Loyiha*) nodavlat va davlat umumta’lim maktablari, akademik litsey, kasbiy va oliy ta’lim tashkilotlarining o‘quvchi va talabalari, ularning ustozlari hamda ta’lim tashkilotlari o‘rtasida o‘tkaziladi.

2. Loyiha Raqamli texnologiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi hamda Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan hamkor tashkilotlar ishtirokida tashkil etiladi.

3. Loyiyaning maqsadi – mahalliy dasturchilarni tayyorlash, yoshlarni zamonaviy kasblarga o‘qitish, bepul onlayn kurslar sonini oshirish, eksport xizmat ko‘rsatuvchi kompaniyalarga kadrlar tayyorlash, hamda onlayn talimni rivojlantirishga qaratilgan.

4. Loyiha doirasida tashkil etilgan tanlovlarda erishilgan natijalar 2025-yil boshidan boshlab hisobga olinadi. Loyiha 2025-2026-yillarda amalga oshiriladi.

5. Loyiha doirasida tashkil etilgan tanlovlarda nodavlat va davlat umumta’lim maktablari, akademik litsey, kasbiy va oliy ta’lim tashkilotlarining o‘quvchi va talabalari, nodavlat va davlat umumta’lim maktablarining informatika fani o‘qituvchilari hamda ta’lim tashkilotlari ishtirok etadilar.

2-bob. Loyiha tanlovlarida ishtirok etish

6. Ishtirokchilar uzbekcoders.uz platformasi orqali ro‘yxatdan o‘tib, dastlab 5 ta bepul onlayn o‘quv kurslarida tahsil olib sertifikatga ega bo‘ladi. Bunda, professional kurslarda o‘qib sertifikatlarni qo‘lga kiritgan ishtirokchilar ko‘proq ustunlikka ega bo‘ladilar.

7. Loyiha doirasida eng ko‘p o‘quv kurslarini muvaffaqiyatli yakunlagan hamda professional sertifikatlarga ega bo‘lgan ishtirokchilar loyiha doirasida o‘tkaziladigan tanlovlarda g‘olib bo‘lishda ustunlikka ega bo‘ladilar.



8. Har bir tanlovda turli toifadagi ishtirokchilar qatnashadi. Ishtirokchilar quyidagi toifalarga bo'linadi:

T/r	Nominatsiya	Ishtirokchi toifasi	G'oliblar soni
1.	“Bir million sun'iy intellekt yetakchilari” loyihasidagi eng faol maktab	Nodavlat va davlat umumta'lim maktablari	2 ta
2.	“Bir million sun'iy intellekt yetakchilari” loyihasidagi eng faol informatika fani o'qituvchisi	Nodavlat va davlat umumta'lim maktablari informatika fani o'qituvchilari	110 nafar
3.	“Bir million sun'iy intellekt yetakchilari” loyihasidagi eng faol oliy ta'lim tashkiloti	Nodavlat va davlat oliy ta'lim tashkilotlari	3 ta
4.	“Bir million sun'iy intellekt yetakchilari” loyihasining eng faol ishtirokchisi	Umumta'lim maktablari hamda o'rta maxsus ta'lim tashkilotlarining o'quvchilari, oliy ta'lim tashkilotlarining talabalari, shuningdek, ta'lim va ish bilan band bo'lmagan yoshlar	1 000 nafar

3-bob. Faol ishtirokchilarni aniqlash va baholash mezonlari

9. “Bir million sun'iy intellekt yetakchilari” loyihasidagi eng faol maktab nominatsiyasi bo'yicha g'olib bo'ladigan 2 ta nodavlat va davlat umumta'lim maktablari quyidagi mezonlarga ko'ra aniqlanadi:

a) platformada o'quv kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan o'quvchilar sonining ushbu maktabdagi jami (5-11-sinf) o'quvchilar soniga nisbati eng yuqori bo'lishi inobatga olinadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$(K/J) * 100 = N$$

Bunda:

K – kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan o'quvchilar soni;

J – ta'lim tashkilotidagi jami o'quvchilar soni;

N – natija

b) umumta'lim maktabidagi xalqaro tan olingan xorijiy til sertifikatiga ega o'quvchilar sonining ushbu ta'lim tashkilotidagi jami o'quvchilar soniga nisbati eng yuqori bo'lishi inobatga olinadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi (xorijiy til sertifikati B1 va undan yuqori daraja inobatga olinadi):



$$(X/J) * 100 = N$$

Bunda:

X – xorijiy til sertifikatiga ega o‘quvchilar soni;

J – ta’lim tashkilotidagi jami o‘quvchilar soni;

N – natija

Hisobga olinadigan xorijiy til sertifikatlari Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligining “Xorijiy tillar va umumta’lim fanlarini bilish darajasini belgilovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan (Adliya vazirligi tomonidan 2024-yil 29-may kuni 3515-raqam bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan) ro‘yxatga muvofiq amalga oshiriladi.

Bunda, **ingliz, nemis, fransuz, koreys, yapon va xitoy** tillari bo‘yicha olingan xorijiy til sertifikatlari hisobga olinadi.

d) nodavlat va davlat umumta’lim maktablari informatika fani bo‘yicha tashkil etilgan Respublika fan olimpiadasi hamda boshqa nufuzli fan olimpiadalarida qatnashib, yuqori natijalarga erishgan o‘quvchilarga ega bo‘lishi inobatga olinadi;

bunda, xalqaro hamda mahalliy olimpiada va musobaqalar ro‘yxati Nizomga ilovada keltirilgan axborot texnologiyalari, jumladan, dasturlash, robototexnika, sun’iy intellekt yo‘nalishlarida O‘zbekiston Respublikasi ishtirok etadigan xalqaro va mintaqaviy olimpiadalar, musobaqalar va tanlovlar ro‘yxatiga muvofiq amalga oshiriladi.

e) Maktab bitiruvchilarining AT yo‘nalishidagi oliy ta’lim tashkilotlariga qabul qilinganlar soni maktab bitiruvchilari umumiy soniga nisbatan eng yuqori bo‘lgan holatlar inobatga olinadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$(K/J) * 100 = N$$

Bunda:

K – AT yo‘nalishidagi oliy ta’lim tashkilotlariga qabul qilingan o‘quvchilar soni;

J – maktabdagi jami bitiruvchilar soni;

N – natija

f) platformadagi 5 ta bepul o‘quv kurslarni tugatib Coursera platformasidan professional darajadagi sertifikat olgan o‘quvchilar sonining ushbu ta’lim tashkilotidagi jami o‘quvchilar soniga nisbati eng yuqori bo‘lishi inobatga olinadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$(K/J) * 100 = N$$

Bunda:

K – professional darajadagi sertifikat olgan o‘quvchilar soni;

J – ta’lim tashkilotidagi jami o‘quvchilar soni;

N – natija



g) boshqa xalqaro platformalarda sertifikatga ega (*it-istedod.uz portaliga kiritilgan Coursera kurslaridan boshqa kurslar*) maktab o'quvchilari

h) informatika fani o'qituvchilarining erishgan yutuqlari (*Jami o'qituvchilar sonidan 50% kam bo'lmashlik sharti bilan*).

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Platformaning barcha (5 ta) bepul kursni o'quv kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan o'quvchilar ulushi	
1.1.	5 foizdan 20 foizgacha	2
1.2.	21 foizdan 35 foizgacha	5
1.3.	36 foizdan 50 foizgacha	10
1.4.	51 foizdan 65 foizgacha	20
1.5.	66 foiz va undan yuqori	30
Mezon uchun		30
2.	Xorijiy til sertifikatiga ega bo'lgan o'quvchilar ulushi	
2.1.	5 foizdan 10 foizgacha	2
2.2.	11 foizdan 20 foizgacha	3
2.3.	21 foizdan 30 foizgacha	5
2.4.	31 foizdan 40 foizgacha	7
2.5.	41 foiz va undan yuqori	10
Mezon uchun		10
3.	Informatika fani doirasida tashkil etilgan olimpiada va tanlovlardagi ishtiroki (ro'yxat asosida)	
3.1	Tuman/shahar bosqichida yuqori o'rin olganda	3
3.2	Hududiy bosqichida yuqori o'rin olganda	5
3.3	Respublika bosqichida yuqori o'rin olganda	7
3.4	Xalqaro olimpiadadagi ishtiroki	10
Mezon uchun		10
4.	AT yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar ulushi	
4.1	1 foizdan 5 foizgacha	5
4.2	6 foizdan 10 foizgacha	7
4.3	11 foizdan 15 foizgacha	10
4.4	16 foizdan 20 foizgacha	15



4.5	21 foiz va undan yuqori	20
Mezon uchun		20
5.	Platformadagi 5 ta bepul o'quv kurslarni tugatib Courserada professional darajadagi sertifikat olgan yoshlar ulushi	
5.1	5 foizdan 10 foizgacha	2
5.2	11 foizdan 20 foizgacha	4
5.3	21 foizdan 30 foizgacha	6
5.4	31 foizdan 40 foizgacha	8
5.5	41 foiz va undan yuqori	10
Mezon uchun		10
6.	Platformadagi 5 ta bepul o'quv kurslarni tugatib boshqa xalqaro platformalarda sertifikatga ega (it-istedod.uz portaliga kiritilgan Coursera kurslaridan boshqa kurslar) yoshlar	
6.1	Boshlang'ich daraja	5
6.2	O'rta daraja	7
6.3	Professional daraja	10
Mezon uchun		10
7.	Informatika fani o'qituvchilarining erishgan yutuqlari	
7.1	Informatika fani o'qituvchilarining xorijiy til sertifikatiga ega bo'lganligi	3
7.2	Platformada professional darajadagi o'quv kurslarni muvaffaqiyatli tamomlaganligi	5
7.3	TOP-1000 universitetlarni bitirgan o'qituvchilar (QS va THE reytingidagi)	7
7.4	Xalqaro olimpiada g'oliblarini tayyorlagan o'qituvchilar	10
Mezon uchun		10
Jami bo'lim uchun		100

10. "Bir million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihasidagi eng faol informatika fani o'qituvchi nominatsiyasi bo'yicha 110 nafar g'oliblarni aniqlash quyidagi mezonlarga ko'ra belgilanadi:

a) platformada barcha (5 ta) bepul kursni o'quv kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan o'quvchilar sonining ushbu ta'lim tashkilotidagi jami o'quvchilar soniga nisbati eng yuqori bo'lishi inobatga olinadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$(K/J) * 100 = N$$



Bunda:

K – kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan o‘quvchilar soni;

J – ta’lim tashkilotlaridagi jami o‘quvchilar soni;

N – natija

b) informatika fani o‘qituvchilari **ingliz, nemis, fransuz, koreys, yapon yoki xitoy** tillaridan biriga oid xalqaro darajadagi til sertifikatiga ega bo‘lganligi. Mazkur xorijiy til sertifikati kamida B1 yoki undan yuqori darajaga ega bo‘lishi inobatga olinadi;

d) platformadagi 5 ta bepul o‘quv kurslarni tugatib professional darajadagi sertifikat olgan o‘quvchilar sonining ushbu ta’lim tashkilotidagi jami o‘quvchilar soniga nisbati eng yuqori bo‘lishi inobatga olinadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$(P/J) * 100 = N$$

Bunda:

P – professional darajadagi sertifikat olgan o‘quvchilar soni;

J – ta’lim tashkilotidagi jami o‘quvchilar soni;

N – natija.

e) o‘quvchilarining informatika fani doirasida tashkil etilgan mahalliy hamda xalqaro olimpiada va musobaqalardagi ishtiroki **(xalqaro hamda mahalliy olimpiada va musobaqalar ro‘yxati ilova qilinadi)**;

f) maktab bitiruvchilarining AT yo‘nalishidagi oliy ta’lim tashkilotlariga qabul qilinganlar soni maktab bitiruvchilari umumiy soniga nisbatan eng yuqori bo‘lgan holatlar inobatga olinadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$(K/J) * 100 = N$$

Bunda:

K – AT yo‘nalishidagi oliy ta’lim tashkilotlariga qabul qilingan o‘quvchilar soni;

J – maktabdagi jami bitiruvchilar soni;

N – natija.

g) talabgorlarning yuqorida keltirilgan baholash mezonni yuzasidan to‘plagan ballari teng kelib qolganda suhbat bosqichi orqali g‘oliblar aniqlanadi.

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Platformaning barcha (5 ta) bepul kursni o‘quv kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan o‘quvchilar ulushi	
1.1.	5 foizdan 20 foizgacha	5
1.2.	21 foizdan 35 foizgacha	10
1.3.	36 foizdan 50 foizgacha	15



1.4.	51 foizdan 65 foizgacha	20
1.5.	66 foiz va undan yuqori	25
Mezon uchun		25
2.	Informatika fani o'qituvchilarining xorijiy til sertifikatiga ega bo'lganligi	
2.1.	B1 darajadagi sertifikat uchun	5
2.2.	B2 darajadagi sertifikat uchun	10
2.3.	C1 darajadagi sertifikat uchun	15
Mezon uchun		15
3.	Platformadagi 5 ta bepul o'quv kurslarni tugatib professional darajadagi sertifikat olgan yoshlar ulushi	
3.1.	5 foizdan 10 foizgacha	5
3.2.	11 foizdan 20 foizgacha	10
3.3.	21 foizdan 30 foizgacha	15
3.4.	31 foizdan 40 foizgacha	20
3.5.	41 foiz va undan yuqori	30
Mezon uchun		30
4.	O'quvchilarning informatika fani doirasida tashkil etilgan mahalliy hamda xalqaro olimpiada va musobaqalardagi ishtiroki (ro'yxat asosida)	
4.1.	Hududiy bosqichida yuqori o'rin olganda	3
4.2.	Respublika bosqichida yuqori o'rin olganda	5
4.3.	Xalqaro olimpiadadagi ishtiroki	7
4.4.	Xalqaro olimpiadada yuqori o'rin olganda	10
Mezon uchun		10
5.	AT yo'nalishidagi oliy ta'lim tashkilotlariga qabul qilingan o'quvchilar ulushi	
5.1.	1 foizdan 5 foizgacha	2
5.2.	6 foizdan 10 foizgacha	4
5.3.	11 foizdan 15 foizgacha	6
5.4.	16 foizdan 20 foizgacha	8
5.5.	21 foiz va undan yuqori	10

KELISHILDI
O'zbekiston Respublikasi
Raqamli texnologiyalar vazirligi
Yuridik ta'minlash bo'limi
19.05.2023 y. F.I.G.H.
[Signature]

Mezon uchun		10
6.	Yakuniy bosqichi uchun qo'yiladigan qo'shimcha ball	
6.1.	O'qituvchi va o'quvchilar vazirliklar va loyihaning ijtimoiy tarmoqlarida faolliklari (<i>a'zoli</i>)	5
6.2.	Bitiruvchi o'quvchilarni frilanserlik orqali mablag' topishlari	8
6.3.	Xalqaro olimpiada g'oliblarini tayyorlagan o'qituvchilar	10
Mezon uchun		10
Jami bo'lim uchun		100

11. Uchta ta eng yaxshi natija qayd etgan AT yo'nalishlari mavjud oliy ta'lim tashkilotini aniqlash:

a) platformada barcha 5 ta bepul o'quv kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan talabalar sonining ushbu ta'lim tashkilotidagi jami talabalar soniga nisbati eng yuqori bo'lishi inobatga olinadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$(K/J) * 100 = N$$

Bunda:

K – kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan o'quvchilar soni;

J – ta'lim tashkilotidagi jami o'quvchilar soni;

N – natija

b) platformadagi barcha 5 ta bepul o'quv kurslarni tugatib professional darajadagi sertifikat olgan talabalar sonining ushbu ta'lim tashkilotidagi jami talabalar soniga nisbati eng yuqori bo'lishi inobatga olinadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$(P/J) * 100 = N$$

Bunda:

P – professional darajadagi sertifikat olgan o'quvchilar soni;

J – ta'lim tashkilotidagi jami o'quvchilar soni;

N – natija

d) platformadagi bepul o'quv kurslarni tugatib professional darajadagi sertifikat olgan AT o'qituvchi va professorlar sonining ushbu ta'lim tashkilotidagi jami AT o'qituvchi va professorlar soniga nisbati eng yuqori bo'lishi inobatga olinadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$(K/J) * 100 = N$$

Bunda:

K – professional darajadagi sertifikat olgan o'quvchilar soni;

J – ta'lim tashkilotidagi jami o'quvchilar soni;

N – natija



2.5.	41 foiz va undan yuqori	20
Mezon uchun		20
3.	Platformada professional darajadagi o'quv kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan AT o'qituvchi va professorlar ulushi	
3.1.	5 foizdan 20 foizgacha	2
3.2.	21 foizdan 35 foizgacha	4
3.3.	36 foizdan 50 foizgacha	6
3.4.	51 foizdan 65 foizgacha	8
3.5.	66 foiz va undan yuqori	10
Mezon uchun		10
4.	B2 va undan yuqori xorijiy til sertifikatiga ega bo'lgan AT yo'nalishlardagi talabalar ulushi	
4.1.	5 foizdan 10 foizgacha	5
4.2.	11 foizdan 20 foizgacha	7
4.3.	21 foizdan 30 foizgacha	10
4.4.	31 foizdan yuqori	15
Mezon uchun		15
5.	B1 va undan yuqori xorijiy til sertifikatiga ega bo'lgan AT o'qituvchi va professorlarning ulushi	
5.1.	5 foizdan 10 foizgacha	3
5.2.	11 foizdan 20 foizgacha	5
5.3.	21 foizdan 30 foizgacha	7
5.4.	31 foizdan yuqori	10
Mezon uchun		10
6.	AT yo'nalish bo'yicha ishga joylashgan oliy ta'lim tashkiloti bitiruvchilari. (Raqamli texnologiyalar vazirligi tizim tashkilotlari hamda IT Park rezidentlari)	
6.1.	20 foizdan 30 foizgacha	5
6.2.	31 foizdan 40 foizgacha	10
6.3.	41 foizdan 50 foizgacha	12
6.4.	51 foiz va undan yuqori	15
Mezon uchun		15
7.	Talabalarning AT yo'nalishi bo'yicha tashkil etilgan olimpiada va tanlovlardagi ishtiroki (ro'yxat asosida)	
7.1.	Hududiy bosqichida yuqori o'rin olganda	10



7.2.	Respublika bosqichida yuqori o‘rin olganda	15
7.3.	Xalqaro olimpiadadagi ishtiroki	20
Mezon uchun		20
Jami bo‘lim uchun		100

12. “Bir million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasida eng faol qatnashgan nodavlat va davlat umumta’lim maktablari, akademik litsey, kasbiy va oliy ta’lim tashkilotlarining o‘quvchi va talabalari nominatsiyasi bo‘yicha g‘oliblar quyidagi mezonlarga asosan aniqlanadi.”

a) “Bir million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasidagi eng faol talabalar:

platformadagi barcha 5 ta o‘quv kurslarni tugatib professional darajadagi sertifikat olgan talabalar;

oliy ta’lim tashkiloti talabalarining **ingliz, nemis, fransuz, koreys, yapon yoki xitoy** tillaridan biriga oid xalqaro darajadagi til sertifikatiga ega bo‘lganligi;

boshqa xalqaro platformalarda sertifikatga ega (it-istedod.uz portaliga ko‘rsatilgan, “Coursera” kurslaridan tashqari kurslar) oliy ta’lim tashkiloti talabalari;

AT yo‘nalish bo‘yicha ishga joylashgan oliy ta’lim tashkiloti talabalar (Raqamli texnologiyalar vazirligi tizim tashkilotlari hamda IT Park rezidentlari) soni bitiruvchilar umumiy soniga nisbatan eng yuqori bo‘lgan holatlar inobatga olinadi va quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$(K/J) * 100 = N$$

Bunda:

K – AT yo‘nalish bo‘yicha ishga joylashgan oliy ta’lim tashkiloti talabalar soni;

J – oliy ta’lim tashkilotidagi jami bitiruvchilar soni;

N – natija

AT va robototexnika yo‘nalishidagi tanlovlarda, xakatonlarda startaplarda qatnashgan talabalar.

b) “Bir million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasidagi eng faol maktab o‘quvchilari:

platformadagi barcha 5 ta o‘quv kurslarni tugatib professional darajadagi sertifikat olgan o‘quvchilar;

maktab o‘quvchilari **ingliz, nemis, fransuz, koreys, yapon yoki xitoy** tillaridan biriga oid xalqaro darajadagi til sertifikatiga ega bo‘lganligi;

boshqa xalqaro platformalarda sertifikatga ega (it-istedod.uz portaliga kiritilgan Coursera kurslaridan boshqa kurslar) maktab o‘quvchilari;



o'quvchilarning informatika va matematika fani doirasida tashkil etilgan mahalliy hamda xalqaro olimpiada va musobaqalardagi ishtiroki;

AT va robototexnika yo'nalishidagi tanlovlarda, xakatonlarda startaplarda qatnashgan maktab o'quvchilari.

"Bir million sun'iy intellekt yetakchilari" loyihasidagi eng faol talabalar nominatsiyasi bo'yicha g'oliblarni aniqlash mezonlari:

T/r	Baholash mezonlari	Ball
1.	Coursera platformasidagi professional darajadagi AT sertifikatlarni olgan talabalar	
1.1.	2 tadan 5 tagacha professional kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan yoshlar	15
1.2.	5 tadan 8 tagacha professional kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan yoshlar	20
1.3.	8 ta va undan yuqori professional kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan yoshlar	25
Mezon uchun		25
2.	AT yo'nalishda tahsil olayotgan talabaning xorijiy til sertifikat darajasi	
2.1.	B1 darajadagi sertifikat uchun	5
2.2.	B2 darajadagi sertifikat uchun	10
2.3.	C1 darajadagi sertifikat uchun	15
Mezon uchun		15
3.	Boshqa xalqaro platformalarda sertifikatga ega (it-istedod.uz portaliga kiritilgan Coursera kurslaridan boshqa kurslar) oliy ta'lim tashkiloti talabalari	
3.1.	Boshlang'ich daraja	5
3.2.	O'rta daraja	10
3.3.	Professional daraja	15
Mezon uchun		15
4.	AT yo'nalish bo'yicha ishga joylashgan oliy ta'lim tashkiloti talabalari. (Raqamli texnologiyalar vazirligi tizim tashkilotlari hamda IT Park rezidentlari)	
4.1.	Ishga joylashganligi (AT dan boshqa sohalarda)	5
4.2.	AT sohasida ishga joylashgan	10
4.3.	AT eksportyor kompaniyalarda ishga joylashgan	15
Mezon uchun		15
5.	AT va robototexnika yo'nalishidagi tanlovlarda, xakatonlarda startaplarda qatnashgan talabalar	
5.1.	Hududiy bosqichda yuqori o'rin olganda	10
5.2.	Respublika bosqichda yuqori o'rin olganda	20
5.3.	Xalqaro bosqichda yuqori o'rin olganda	30
Mezon uchun		30



Jami bo'lim uchun	100
--------------------------	------------

“Bir million sun’iy intellekt yetakchilari” loyihasidagi eng faol maktab o‘quvchilari nominatsiyasi bo‘yicha g‘oliblarni aniqlash mezonlari:

1.	Platformadagi barcha 5 ta o‘quv kurslarni tugatib professional darajadagi sertifikat olgan o‘quvchilar	
1.1.	2 tadan 5 tagacha professional kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan yoshlar	15
1.2.	5 tadan 8 tagacha professional kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan yoshlar	20
1.3.	8 ta va undan yuqori professional kurslarni muvaffaqiyatli tamomlagan yoshlar	25
Mezon uchun		25
2.	Xorijiy til sertifikatiga ega bo‘lgan maktab o‘quvchilari	
2.1.	B1 darajadagi sertifikat uchun	5
2.2.	B2 darajadagi sertifikat uchun	7
3.3.	C1 darajadagi sertifikat uchun	15
Mezon uchun		15
3.	Boshqa xalqaro platformalarda sertifikatga ega (it-istedod.uz portaliga kiritilgan Coursera kurslaridan boshqa kurslar) maktab o‘quvchilari	
3.1.	Boshlang‘ich daraja	5
3.2.	O‘rta daraja	10
3.3.	Professional daraja	15
Mezon uchun		15
4.	O‘quvchilarning informatika fani doirasida tashkil etilgan mahalliy hamda xalqaro olimpiada va musobaqalardagi ishtiroki (ro‘yxat asosida)	
4.1.	Hududiy bosqichda yuqori o‘rin olganda	5
4.2.	Respublika bosqichda yuqori o‘rin olganda	10
4.3.	Xalqaro olimpiadadagi ishtiroki	15
Mezon uchun		15
5.	AT va robototexnika yo‘nalishidagi tanlovlarda, xakatonlarda startaplarda qatnashgan maktab o‘quvchilari	
5.1.	Hududiy bosqichda yuqori o‘rin olganda	10
5.2.	Respublika bosqichda yuqori o‘rin olganda	20
5.3.	Xalqaro bosqichda yuqori o‘rin olganda	30
Mezon uchun		30
Jami bo‘lim uchun		100



4-bob. Ishtirokchilarni rag'batlantirish

13. Ishtirokchilar quyidagi tartibda rag'batlantiriladi:

2 ta umumta'lim maktabiga elektromobil sovg'a sifatida beriladi;

umumta'lim maktablarining 10 nafar informatika fani o'qituvchilari uchun xorijiy dam olish safarini tashkil etiladi;

umumta'lim maktablarining 100 nafar informatika fani o'qituvchilarining har biriga 10 mln so'mdan pul mukofoti taqdim etiladi;

3 ta eng yaxshi natija qayd etgan oliy ta'lim tashkilotlari, jumladan, 1-o'rin uchun 100 mln, 2-o'rin uchun 50 mln va 3-o'rin uchun 25 mln so'mdan rag'batlantiriladi;

Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan eng yaxshi natijalarni qo'lga kiritgan 1000 nafar o'quvchi va talabalarga noutbuk hamda qimmatbaho sovg'alar topshiriladi.

5-bob. Yakunlovchi qoidalar

14. Platformaga o'qituvchilar tomonidan o'quvchi nomidan ruxsatsiz ro'yxatdan o'tishi hamda o'quvchi nomiga sertifikatlarni rasmiylashtirish qat'iyani taqiqlanadi. Shunday holatlar aniqlangan taqdirda tegishli nodavlat va davlat umumta'lim maktablari, akademik litsey, kasbiy va oliy ta'lim tashkilotlari va informatik fani o'qituvchilarining barcha natijalari bekor qilinadi.



“Bir million sun’iy intellekt
yetakchilari” loyihasi doirasida
tanlovlarni tashkil etish va o’tkazish
tartibi to’g’risidagi nizomga
ILOVA

**Axborot texnologiyalari, jumladan, dasturlash, robototexnika, sun’iy intellekt
yo‘nalishlarida O‘zbekiston Respublikasi ishtirok etadigan xalqaro va
mintaqaviy olimpiadalar, musobaqalar va tanlovlar
RO‘YXATI**

T/r	Nomi
1.	Xalqaro informatika olimpiadasi (<i>International Olympiad in Informatics – IOI</i>)
2.	Xalqaro Jautikov olimpiadasi – informatika yo‘nalishi (<i>International Zhautykov Olympiad – IZHO</i>)
3.	Osiyo-Tinch okeani mintaqasi informatika olimpiadasi (<i>Asia-Pacific Informatics Olympiad – APIO</i>)
4.	Informatika bo‘yicha Yevropa qizlar olimpiadasi (<i>European Girls’ Olympiad in Informatics – EGOI</i>)
5.	Al-Xorazmiy nomidagi xalqaro matematika va informatika olimpiadasi
6.	Robototexnika bo‘yicha First Global Challenge musobaqasi
7.	Sun’iy intellekt xalqaro olimpiadasi (<i>International Artificial Intelligence Olympiad – IAIO</i>)
8.	Informatika bo‘yicha Yevropa o‘smirlar olimpiadasi (<i>European Junior Olympiad in Informatics – EJOI</i>)

*Ro‘yxat Ishchi guruh taklifi asosida yangilab, to‘ldirib borilishi mumkin.

